


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 1 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 1



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-1>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. Toshpolatov Bekzod Shuxratovich, Ganiyeva Nafisa Rustamkulovna ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХАЛҚАРО ЁНДАШУВЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Bekzod Toshpolatov, Nafisa Ganiyeva ENSURING GENDER BALANCE IN THE EDUCATION AND SCIENCE SYSTEM: THE STRATEGIC ROLE OF WOMEN'S PARTICIPATION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN.....	11
3. Sharopova Nigora Akbarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA).....	15
4. Boboqulov Lochinbek Zikir o'g'li ANTI-K VA ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D VA XITOIY MADANIY ALOQALARI.....	19
5. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA GI ILMIIY MUHOZARALARDA OROL DENGI SI MUAMMOSI: INQIROZ, OGOHLANTI RI SHLAR VA HAL QILI SH I ULLARI.....	23
6. Abdullayev Timur Pulatovich, Sapayeva Sadoqat Odilbekovna MEHNAT MIGRATSIYASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	28
7. Abdullayev Timur Pulatovich., Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li. MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.....	34
8. Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO YO'LLARINING O'RNI.....	40
9. Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna. XORAZM VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI.....	44

FILOLOGIYA

1. Sultanova Fazilat, Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovna MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ENGLISH LANGUAGE): A COMPETENCY-BASED PERSPECTIVE.....	48
2. Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	52
3. Ro'zimova Dildora Khujaakhmedovna THE THEORY OF PROJECT BASED LEARNING IN TESOL.....	57

IQTISOD

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna YASHIRIN IQTISODIIYOTNING MINTAQA IQTISODIIY O'SISHIGA SALBIY TA'SIRLARINI BARTARAF QILISH.....	61
---	----

2. Egamberdiev Egamberdi

THE ROLE OF INTEGRATED DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN ENHANCING SME COMPETITIVENESS IN UZBEKISTAN.....65

3. Matkarimov Mansur Maksudovich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY-SIYOSIY TAHLILI....69

PEDAGOGIKA VA ANIQ FANLAR

1. Yuldosheva Sabohat Norimon qizi

GEOMETRIK ISBOTLASHDA DEDUKTIV–INDUKTIV YONDASHUVLARNING UYG‘UNLASHUVI.....75

FALSAFA

1. Майлиев Азамат Фарходович

ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....78

**Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna-
Urganch davlat universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

**XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR
LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18519555>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili tarixiy leksikologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri – kasb-hunar leksikasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy leksikologiya, kasb-hunar leksikasi, eski o'zbek tili, Xorazm adabiy muhiti, O'temish hoji, Munis, Ogahiy, "Chingiznoma", etimologik tahlil, lingvopoetika, ijtimoiy-siyosiy terminlar.

**Қўшназарова Меҳрибон Қўзибайевна –
преподаватель узбекского языка и литературы академического лицея
Ургенчского государственного университета.**

**ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ЛЕКСИКИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШКОЛЫ ХОРЕЗМСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ**

Аннотация. В данной статье исследуются особенности формирования и развития профессионально-ремесленной лексики как одного из важнейших направлений исторической лексикологии узбекского языка.

Ключевые слова: историческая лексикология, профессиональная лексика, староузбекский язык, Хорезмская литературная среда, Утемиш-ходжи, Мунис, Агахи, «Чингиз-наме», этимологический анализ, лингвопоэтика, общественно-политические термины.

**Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna –
a teacher of the Uzbek language and literature at
the Academic Lyceum of Urgench State University.**

**FEATURES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL LEXICON IN
THE WORKS OF THE KHOREZM HISTORIOGRAPHY SCHOOL**

Abstract: This article investigates the formation and development characteristics of professional lexicon, a crucial direction in Uzbek historical lexicology.

Keywords: historical lexicology, professional lexicon, Old Uzbek language, Khorezm literary environment, Utemish Haji, Munis, Agahi, "Chingiznoma", etymological analysis, linguopoetics, socio-political terms.

O'zbek tili tarixi, xususan, uning kasb-hunar leksikasini tadqiq etishda yozma manbalarning til xususiyatlari va yaralish muhitini aniqlash muhim metodologik ahamiyatga ega. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda mo'g'ullar istilosidan so'nggi davrda, xususan, Xorazm vohasida adabiy turkiy tilning shakllanish va rivojlanish jarayoni o'ziga xos kechgan. Tarixiy-lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbek xonliklari davrida davlat ishlari va adabiy jarayonning to'liq turk-o'zbek tilida olib borilishi jihatidan Xorazm boshqa mintaqalardan yaqqol ajralib turgan.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida rasmiy ish yuritish va tarixnavislikda asosan fors-tojik tili hukmronlik qilgan bir paytda, Xiva xonligida tarixiy asarlarning aksariyati turkiy (eski o'zbek) tilida bitilgan. Bu esa mazkur manbalarni o'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi, xususan, kasb-hunar terminologiyasi uchun birlamchi va eng ishonchli manbaga aylantiradi. O'zbek tili tarixi, xususan, Xorazm adabiy muhitida shakllangan kasb-hunar va ijtimoiy-siyosiy leksikani tadqiq etishda XVI asr o'rtalarida yaratilgan O'temish hojining "Chingiznoma" (ayrim manbalarda "Tarixi Do'st Sulton") asari muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridan farqli o'laroq, Xorazmda rasmiy ish yuritish va tarixnavislikda turkiy til mavqeining ustuvorligi kuzatiladi. Bu an'ananing ilk va yorqin namunalaridan biri aynan "Chingiznoma"dir. "Chingiznoma" Oltin O'rda va uning davomchilari bo'lgan xonliklar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, u to'liq turkiy tilda (eski o'zbek yozuvida) bitilgan noyob manba hisoblanadi. Asarning til xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, u muallif yashagan davrdagi jonli so'zlashuv tiliga va xalq og'zaki ijodi an'alariga juda yaqin bo'lgan. Bu esa asarni nafaqat tarixiy, balki lingvistik jihatdan, xususan, eski o'zbek tilining leksik qatlamini o'rganishda qimmatli manbaga aylantiradi.

Asarning yana bir muhim jihati shundaki, undagi voqealar bayonida qo'llanilgan harbiy, ma'muriy va maishiy leksika keyinchalik Abulg'oz Bahodirxon, Munis va Ogahiylar tomonidan rivojlantirilgan Xorazm turkiy tarixnavislik tilining poydevorini tashkil etgan. "Chingiznoma"da uchraydigan *o'g'lon* (shahzoda), *navkar* (navkar, askar), *yurt* (mamlakat, qarorgoh) kabi ijtimoiy-siyosiy va harbiy terminlar keyinchalik Xiva xonligi rasmiy hujjatlari va tarixiy asarlari leksikasining o'zagiga aylangan.

Ilmiy jamoatchilikka ma'lum muddat noma'lum bo'lib kelgan ushbu asarning nusxalari XX asrda qayta kashf etildi. Xususan, Zakiy Validiy To'g'on tomonidan topilgan va tadqiqqa jalb etilgan Toshkent nusxasi (O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi) asarning til xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, V.P.Yudin kabi olimlar ham asarning faksimile va transkripsiyasini nashr ettirish orqali uning matnshunoslik va tilshunoslik uchun ahamiyatini asoslab berganlar[1]. Bu asar o'z davrida keng tarqalmagan va keyingi davr tarixchilari, jumladan, Abulg'oz Bahodirxon ham undan bexabar bo'lgan[2].

Xorazm tarixnavislik maktabining haqiqiy asoschisi va uni turkiy tilda tizimlashtirgan shaxs Abulg'oz Bahodirxon hisoblanadi. Uning "Shajara"lari nafaqat tarix, balki o'zbek tilining sofligi va xalqonaligini saqlash nuqtai nazaridan ham muhim lingvistik obidadir. Abulg'ozidan keyingi davrlarda ham bu an'ana davom etgan. Xususan, Sherg'ozixon davrida (1714-1727) Mavlono Sayyid Muhammad oxund tomonidan yozilgan "Gulshani iqbol" asari ham chig'atoy (eski o'zbek) tilida yaratilganligi taxmin qilinadi, garchi bu asar keyinchalik yo'qolgan bo'lsa-da, uning tili haqidagi ma'lumotlar manbalarda saqlanib qolgan[3].

XVIII asrda Xorazmda yuzaga kelgan siyosiy parokandalik va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi tarixnavislik jarayonini vaqtincha sekinlashtirdi. Ammo XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib, Qo'ng'iro't sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashgan davlatchilikning mustahkamlanishi madaniy hayotda, xususan, til va adabiyotda yangi uyg'onish davrini boshlab berdi. Yangi hukmdorlar o'z hokimiyatlarini qonuniylashtirish (legitimatsiya) va tarixda qoldirish maqsadida ona tilida yoziladigan tarixiy asarlarga katta ehtiyoj sezidilar. Bu ijtimoiy buyurtma o'zbek tilining funksional doirasini kengaytirib, unda nafaqat badiiy, balki ilmiy, tarixiy, ma'muriy va kasbiy leksikaning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Munis va keyinchalik Ogahiyning mirob bo'lib ishlashi ularning asarlarida faqat tarixiy voqealar emas, balki suv xo'jaligi, dehqonchilik, yer tuzilishi va muhandislikka oid professional leksikaning (kasb-hunar atamalarining) mukammal va aniq qo'llanilishiga zamin yaratgan. Ular shunchaki nazariyotchi olimlar emas, balki amaliyotchi mutaxassis bo'lganliklari uchun ham, ularning tilida *arna*, *soqa*, *to'g'on*, *kash*, *zakot*, *tanob* kabi yuzlab sohaviy so'zlar asl ma'nosida va o'rinli ishlatilgan.

Munisning ta'lim olishida uning ustozlari Sayyid Eshonxo'ja va Sayyid Muzaffarxo'jalarning o'rni katta bo'lib, ular vositasida u arab va fors tillarini mukammal o'zlashtirgan, bu esa unga eski o'zbek tili imkoniyatlaridan keng foydalanish va ilmiy uslubni shakllantirish imkonini bergan[4].

Xulosa qilib aytganda, XVIII-XIX asrlar Xorazm adabiy muhiti, xususan, Munis va Ogahiyning faoliyati o'zbek tili tarixida o'ziga xos bosqichni tashkil etadi. Bu davr asarlari boshqa hududlardan farqli o'laroq, turkiy til mavqeining balandligi va mualliflarning bevosita ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonida ishtirok etganliklari sababli, kasb-hunar leksikasini tadqiq etish uchun eng ishonchli va boy manba bo'lib xizmat qiladi.

XVIII–XIX asrlar Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yorituvchi asosiy manbalar tilini leksik-semantik tahlil qilish natijasida, ularda qo'llanilgan minglab kasb-hunar va mansab nomlarini quyidagi 8 ta asosiy mavzuiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi:

1. *Davlat boshqaruvi va ma'muriy-siyosiy lavozimlar leksikasi*. Ushbu guruhga davlat apparatini boshqarish, devonxona ishlarini yuritish va diplomatik aloqalar bilan bog'liq istilohlar kiradi: *vazir* – hukmdorning eng yaqin maslahatchisi, davlat arbobi; *dabir* / *munshiy* – davlat ahamiyatiga molik hujjatlarni tuzuvchi, kotib, insho san'ati ustasi; *dorug'a* – shahar yoki ma'lum bir hudud hokimi, tartib-intizom nazoratchisi; *muboshir* – biror davlat ishi yoki qurilishiga boshchilik qiluvchi mas'ul shaxs; *muhrdor* – xon muhrini saqlovchi va hujjatlarni tasdiqlovchi mansabdor; *naqib* – harbiy yoki diniy jamoa boshlig'i, yo'l boshchi; *nozir* – davlat mulki yoki biror soha (masalan, vaqf yerlari) ustidan nazorat olib boruvchi; *parvonachi* – oliy farmonlarni yetkazuvchi va ijrosini ta'minlovchi amaldor; *tahvildor* – xazina yoki ombordagi mulkni qabul qilib oluvchi va saqlovchi mas'ul; *xozin* – davlat xazinaboni; *elchi* – xorijiy davlatlar bilan aloqa o'rnatuvchi diplomatik vakil; *yasovul* – saroy marosimlarida tartib saqlovchi, xon qo'riqchisi va ijrochi.

2. *Harbiy ish va sipohiylik leksikasi*. Tarixiy asarlardagi jang tasvirlari harbiy-hunarmandchilik va askarlikka oid quyidagi boy leksik qatlamni yuzaga chiqargan: *alamanchi* – maxsus hujumlarda qatnashuvchi, o'lja olishga ixtisoslashgan otliq askar; *didbon* – qal'a burjlarida yoki yuqori nuqtalarda turib atrofni kuzatuvchi soqchi; *jarchi* – qo'shinga buyruqlarni yetkazuvchi, xabarchi; *lashkar* / *sipoh* – umumiy ma'noda qo'shin ahli, askar; *mirshab* – tungi soqchilik xizmati rahbari, shahar xavfsizligi boshlig'i; *nayzachi* – uzun nayza bilan qurollangan piyoda yoki otliq askar; *navkar* – harbiy xizmatga yollangan, maosh oluvchi doimiy jangchi; *payk* / *chopar* – shoshilinch harbiy xabarlarni yetkazuvchi tezyurar chopar; *sarkarda* / *sardor* – qo'shin qo'mondoni; *silohsho'r* – turli qurollarni ishlatish mahoratiga ega bo'lgan mohir jangchi; *to'pchi* – zamburak va to'plarni boshqaruvchi harbiy mutaxassis; *o'qchi* / *kamonkash* – yoy va o'q otishga ixtisoslashgan mergan.

3. *Hunarmandchilik va ishlab chiqarish leksikasi*. Bu guruhga qo'l mehnati asosida moddiy ne'matlar yaratuvchi turli soha vakillarining nomlari kiradi: *zargar* – qimmatbaho metallardan (oltin, kumush) bezak buyumlari yasovchi usta; *kamongar* – jang qurollari (yoy va o'q) yasovchi mutaxassis; *kimyogar* – turli moddalar, bo'yoqlar va dorivorlar tayyorlovchi usta; *kulol* – loydan turli ro'zg'or idishlari yasovchi; *najjar* – yog'och o'ymakorligi va duradgorlik bilan shug'ullanuvchi usta; *naqshband* / *naqqosh* – bino devorlari, shiftlar yoki matolarga gul va naqsh soluvchi san'atkor; *ohangar* / *haddod* – temirchilik va metallsozlik ustasi; *poyafzoldo'z* / *kavushdo'z* – charmdan oyoq kiyimlari tikuvchi; *po'stindo'z* – teri va mo'ynadan qishki kiyimlar tayyorlovchi; *sabbog'* – ip va matolarni turli ranglarga bo'yash ustasi; *sangtarosh* – toshga ishlov beruvchi, qabrtosh yoki bino bezaklarini yo'nuvchi; *sovungar* – kir yuvish vositalari va sovun ishlab chiqaruvchi; *tikuvchi* / *darzi* – kiyim-kechak tikish bilan shug'ullanuvchi hunarmand;

tillado'z – matoga zar iplar bilan naqsh tikkuvchi (Xivada keng tarqalgan); *xishtmol* – qurilish uchun xom va pishiq g'isht quyuvchi; *charmagar* – xom terini oshlab, charm tayyorlovchi.

4. *Savdo-sotiq va moliya munosabatlari leksikasi*. Iqtisodiy hayotni aks ettiruvchi ushbu guruhga quyidagi atamalar mansub: *attor* – xushbo'y narsalar, ziravorlar va dorivor o'tlar savdogari; *bazzoz* – mato, bo'z va gazlamalar bilan savdo qiluvchi; *bakqol* – kundalik oziq-ovqat mahsulotlari sotuvchisi; *bozurgon / tojir* – yirik savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi, karvon egasi; *zakotchi* – aholidan davlat soliqlarini (zakot) yig'uvchi mas'ul; *mayfurush* – sharob va ichimliklar savdosi bilan shug'ullanuvchi; *muhosib* – davlat yoki savdo uyining hisob-kitob ishlarini yurituvchi; *sarrof* – pul almashtiruvchi, tangalarning haqiqiyliigi va qiymatini baholovchi mutaxassis.

5. *Qishloq xo'jaligi va chorvachilik leksikasi*. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan bog'liq jarayonlarda quyidagi kasb nomlari qo'llanilgan: *axtachi* – xon otxonasidagi otlarni parvarish qiluvchi; *barzagor* – qo'sh haydovchi, yerga ishlov beruvchi dehqon; *bog'bon* – bog' va mevali daraxtlarni parvarishlovchi; *mirob* – suv taqsimoti, kanal va ariqlar holatini nazorat qiluvchi amaldor; *sayis* – otlarni o'rgatuvchi, tolovchi va jangga tayyorlovchi mutaxassis; *sarbon* – tuyakash, savdo karvonlarini boshqaruvchi; *cho'pon / shubon* – chorva mollarini boquvchi; *qushchi* – ovchi qushlarni (lochin, qarchig'ay) parvarishlovchi va ovga tayyorlovchi.

6. *Ilm-fan, din va maorif leksikasi*. Ma'naviy hayot va ilm-fan taraqqiyoti quyidagi atamalarda aks etgan: *adib* – badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi, adabiyot bilimdoni; *voiz / xatib* – juma namozlari va yig'inlarda va'z aytuvchi notiq; *imom / peshvo* – diniy jamoa rahbari; *maktabdor / muallim / mudarris* – madrasa va maktablarda ta'lim beruvchi o'qituvchi; *massoh* – yer maydonlarini o'lchovchi geodezist (yer tuzuvchi); *munajjim / anjumshunos* – yulduzlar harakatiga qarab taqvim tuzuvchi astronom; *muarrix* – tarixnavis olim; *musavvir* – kitob grafikasi va tasviriy san'at ustasi, rassom; *muftiy* – shariat qonunlari asosida hukm (fatvo) chiqaruvchi ulamo; *tabib / hakim* – xalq tabobati usullari bilan bemorlarni davolovchi; *faqih* – islom huquqshunosligi (fiqh) bilimdoni.

7. *Madaniyat va san'at leksikasi*. Saroy hayoti va xalq sayillaridagi madaniy hordiq chiqarish jarayoni bilan bog'liq kasblar: *ayolg'uchi / xonda / go'yanda* – qo'shiq ijro etuvchi, xonanda; *barbatnavoz / changchi* – torli musiqa asboblari (barbat, chang) chaluvchi sozanda; *nag'magar* – kuy bastalovchi yoki ijro etuvchi musiqachi; *raqqos* – raqs san'ati ustasi; *soqiy* – adabiy majlislar va ziyofatlarda sharob quyib turuvchi (majoziy ma'noda ham qo'llangan).

8. *Maishiy xizmat va ro'zg'or yumushlari leksikasi*. Kundalik turmush va xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar: *bakovul* – saroy oshxonasi boshqaruvchisi, taomlar sifati va xavfsizligini tekshiruvchi; *bovurchi / oshpaz* – taom tayyorlovchi oshpaz; *gozur* – kiyim-kechak va matolarni yuvuvchi, oqlovchi (kir yuvuvchi); *dallok* – hammom xizmatchisi, badanni uqalovchi; *doya* – tug'ruq jarayonida yordam beruvchi ayol; *mashshota* – to'ylarda kelinlarni bezovchi, pardozchi ayol; *sartarosh* – soch va soqol oluvchi usta; *farrosh* – saroy va jamoat joylari tozaligiga mas'ul xizmatchi; *xalloj* – paxtani chigitidan ajratuvchi va tituvchi (ko'pincha xizmat turi sifatida); *chokar* – uy ishlariga qarashuvchi xizmatkor; *sham'rez* – yoritish vositalari (sham) quyib tayyorlovchi usta.

Ushbu kasb-hunar nomlarining har biri tahlil o'zbek tili tarixiy leksikasi hamda hozirgi o'zbek adabiy tili leksik taraqqiyoti uchun qimmatli manbalar berishini *cho'pon* so'zi misolida ko'rib chiqamiz.

Alisher Navoiy, Munis va Ogahiy asarlarida, shuningdek, turkiy va eroniy xalqlarning maishiy hayotida faol qo'llaniladigan *cho'pon* (ba'zi manbalarda *shubon*) leksemasi chorvachilik madaniyatiga oid asosiy terminlardan biri hisoblanadi. Keng tarqalgan xalq etimologiyasiga ko'ra, bu so'z forscha *cho'b* (tayoq) va *-bon* (saqlovchi) o'zaklaridan tashkil topgan ("qo'lida tayog'i bor kishi") deb izohlanadi, lekin bu o'zinii oqlamaydi[5]. Lingvistik tadqiqotlar so'zning ildizlari qadimgi eroniy tillardagi *chorva* tushunchasiga borib taqalishini ko'rsatadi. Eroniy tillarning tarixiy etimologiyasiga oid tadqiqotlarga, xususan, Muhammad Hasando'stning izlanishlariga ko'ra, yangi fors va o'zbek tilidagi *šubān / šupān* (*cho'pon/sho'bon*) so'zi o'rta fors (pahlaviy) tilidagi *šupān* shaklining bevosita davomidir. So'zning eng qadimgi ildizi qadimgi fors tilidagi **fšu-pāna-* (chorva boquvchi) birikmasiga borib taqaladi[6].

Ali Nurai ham o'zining etimologik lug'atida ushbu so'zning hind-yevropa tillari oilasidagi keng qamrovli aloqalarini ochib beradi. Unga ko'ra, forscha *šubān* va inglizcha *shepherd* (qo'ychi) so'zlari o'rtasida tipologik o'xshashlik mavjud bo'lsa-da, genetik jihatdan *fšu* o'zagi ko'proq lotincha *pecunia* (pul, boylik – aslida chorva) va gotcha *faihu* (mol-mulk) so'zlari bilan qarindoshdir[7].

A.Rustamovning haqli e'tirofiga ko'ra, so'zning tarixiy rivojlanishi quyidagicha kechgan: qadimgi davr: *fšu-pāna* (chorva posboni); o'rta davr: *šubān* (tovushlarning qisqarishi va *f* ning tushib qolishi); yangi davr: turkiy tillar ta'sirida *š* tovushining *č* ga almashishi natijasida *čupān* (cho'pon) shakli paydo bo'lgan[8].

Olib borilgan tadqiqotlar va manbalar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridan farqli o'laroq, Xorazmda tarixiy asarlar va davlat hujjatlarining asosan turkiy (eski o'zbek) tilida bitilganligi, bu mintaqa manbalarini o'zbek tili kasb-hunar leksikasini o'rganish uchun eng ishonchli va birlamchi asosga aylantiradi.

XVI asrda yaratilgan O'temish hojining "Chingiznoma" asari Xorazm turkiy tarixnavislik tilining ilk namunasi sifatida keyinchalik Abulg'oz, Munis va Ogahiyar tomonidan rivojlantirilgan harbiy va ma'muriy terminologiya uchun poydevor vazifasini o'tagan.

Munis va Ogahiyarning nafaqat ijodkor, balki davlat amaldori (mirob) sifatida faoliyat yuritganliklari, ularning asarlarida suv xo'jaligi, dehqonchilik va boshqaruv tizimiga oid terminlarning yuqori aniqlik va keng qamrovda ishlatilishini ta'minlagan.

Cho'pon leksemasining qiyosiy-tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar nomlari faqatgina atama vazifasini bajarib qolmay, balki chuqur diniy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmun tashuvchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ularning ma'no taraqqiyoti xalq tarixi va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu ilmiy natijalar eski o'zbek tili leksik qatlamini tizimli o'rganishda va zamonaviy o'zbek terminologiyasini tarixiy negizlar asosida boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozkır, İlknur. Ötemiş Hacı'nın Çengiznamesi ve Dil Hususiyetleri (Giriş-İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım): Yüksek Lisans Tezi. – Kırıkkale: Kırıkkale Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2006.
2. Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. – Leiden–New York: T.J.Brill, 1988. – P. 13.
3. Eckmann J. Die tschagataische Literatur // Philologiae Turcicae Fundamenta. Vol.II. – Wisbaden, 1964. – P. 385.
4. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 19.
5. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. –Б. 128.
- i. حسن دوست، محمد فرهنگ ریشه‌شناسختی زبان فارسی. جلد دوم (پ - د). (تهران: فرهنگستان زبان و ادب فارسی، ۱۳۹۳. ص ۱۰۵۸.
6. Nourai, Ali. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. Vol I. – USA: Xlibris Corporation, 2013. – P. 445.
7. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 128-129.
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7-том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 123.
- a. بن زهير محمد: تحقيق. (البخاري صحيح) المختصر الصحيح المسند الجامع. إسماعيل بن محمد، البخاري حسن دوست، محمد فرهنگ ریشه‌شناسختی زبان فارسی. جلد دوم (پ - د). (تهران: فرهنگستان زبان و ادب فارسی، ۱۳۹۳. ص ۱۰۵۸.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].